

## TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI YONDASHUVLAR

Xamraqulov Zafarjon Yigitalievich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD.*

Gmail: [zafarjonxamraqulov@gmail.com](mailto:zafarjonxamraqulov@gmail.com) Telefon: +998 90 304 01 50

**Annotatsiya:** maqolada izlanuvchan-kreativ, tizimli, texnologik, ta'linda innovatsion texnologiyalarini qo'llashdagi tadqiqiy-ijodiy, ta'limni boshqarishga tizimli yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yondashuvlar, izlanuvchan-kreativ, tizim, ta'lim, innovatsion texnologiyalar, tadqiqiy-ijodiy, ta'limni boshqarish.

Bugungi zamонавиј шароитлардаjahon pedagogikasidagi innovatsion texnologiya yutuqlaridan foydalanish orqali mamlakatimiz kelajagini barpo etish taraqqiyotning muhim omili bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda kuzatilayotgan davlatimizning tezkor rivojlanishi davrida tanqidiy fikrlovchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan, innovatsiyalarni yaratuvchi va amalda qo'llovchi mutaxassislarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bu holat ta'limga innovatsiyalarni, zamонавиј interfaol va ijodiy o'qitish metodlarini joriy etish orqali ta'lindagi sifat ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beruvchi dasturlarni ishlab chiqish, pedagogik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

O'zbekistonda jahon tajribasiga asoslangan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bunga 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun huquqiy asoslarni taqdim etmoqda. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limda yangi axborotlar bilan ishlay oladigan qobiliyatli qatlam shakllanmoqda. Ta'lim dasturlarini individuallashtirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar kuchayib, yangi ijodiy yechimlar topilmoqda.

Hozirgi davrda talabalarning pedagogik ta'lindagi faolligini oshirishning muammoli o'qitish, rolli o'yinlar va boshqa innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar xilma-xil bo'lsada, ulardan foydalanish keng yoyilgan, deb bo'lmaydi. Asosiy sabab sifatida har bir mashg'ulot uchun pedagogik izlanish, layoqat, tashabbuskorlik, novatorlik va ancha ko'p vaqt sarf qilinishi ko'rsatiladi. Zero, har bir mavzudagi mashg'ulot o'ziga xos va takrorlanmasdir.

Xorij tajribasidan foydalanish ta'limga yangi atmosferani olib kiradi. Metodologiyani boyitib, pedagoglarga tanlash imkoniyatlarini tuhfa etadi, biroq chet el tajribasidan ko'r-ko'rona foydalanish kutilmagan natijalarga olib kelishini

ham yaqin tariximiz ko'rsatib berdi. Jumladan, 1997 yilgi qonunchilik asosida ta'lif tizimida shakllantirilgan tajriba muvaffaqiyatsizlikka uchradi va mamlakat kelajagi uchun sarflangan katta harajatlarni oqlamadi. SHu bois, xorij tajribasidan foydalanishda chuqur ilmiy tadqiqotlar natijasiga tayanishning ahamiyati ortmoqda.

Globallashuv tufayli dunyo mamlakatlari o'z ta'lif tizimlarida zamonga moslashish uchun yangi innovatsiyalardan foydalanishga intilmoqda. Bu ko'pincha ta'limga elektron axborot vositalarini kirib kelayotganligi bilan ko'zga tashlanmoqda. Kompyuter texnologiyalari ko'zgazmalilik usullarini takomillashishiga yordam beryapti. Ilmiy-nazariy tushunchalarni ta'lif oluvchilar e'tiboriga obrazli qilib yetkazish ta'lifning sifati va samaradorligi ta'minlanishiga olib kelyapti. Bunday hollarda ta'limga innovatsiyalarni qay yo'sinda joriy etish yanada samaralilikni ta'minlashi masalasi yuzaga kelyapti. Zero, innovatsiyalardan ko'r-ko'rona foydalanish kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Ta'limga innovatsion yondashuv uning maqsadlarini izchil amalga oshirishga katta turtki beradi. Buning uchun sohaga doir ilmiy izlanishlarni kengaytirish, kontseptual qarashlar tizimini yanada rivojlantirish, istiqbollarni belgilashda pedagogik shart-sharoitlarni inobatga olish zarur. Binobarin, ta'lifda yuksak sifat o'zgarishlariga erishish to'plangan tajribani chuqur tahlil qilish, aniq xulosalar chiqarish, olingan natijalar asosida yangi rejalar tuzish hamda ularni amalga oshirish XXI asrdagi ta'lifning asosiy talablariga aylanmoqda.

Innovatsion texnologiyalar texnologik yondashuvga asoslangan bo'lib, ta'lif jarayonida belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi usul va metodlar majmuasidan iboratdir. Pedagogik texnologiya - ta'lif usuli, ma'lum ma'noda ta'lif-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Yangi innovatsion texnologiyalarning an'anaviy ta'lifdan farq qiluvchi jihatlari talabaning jinoyat huquqini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, shaxsning moyilligi va imkoniyatlarini demokratik yo'llarga burishda namoyon bo'ladi. Innovatsion texnologiyaning an'anaviy ta'lifdan farqlovchi xususiyatlari ancha ko'p bo'lib, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishish bilan ajralib turadi. Usul va metodlar ta'lifning umumiyligi maqsadlarini ishlab chiqish, amalga oshirish, olingan umumiyligi natijalarni nazarat qilish, kuzatish va baholash jarayonlarini belgilaydi. SHuning uchun ta'lifda innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi. Hozirgi davrda innovatsion jarayonga turli yondashuvlar mavjud.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Mazkur yondashuv talabalarda muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarni o'zlashtirishga mustaqil intilish, tashabbus ko'rsatish va innovatsiyalarni topishni o'zida aks ettiradi. Bunda o'qituvchi talabalarning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi rolida rahbarlik qilib,

tashabbusni qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va yo'naltiruvchilik vazifalarini bajaradi. Bunday yondashuv pedagogning talabaga bo'lgan munosabati, ishonchi va muloqotining yuqori darajaga chiqishi, talabalarni majburlash o'rniga rag'batlantirishning ustuvorligiga asoslanadi. Bunda ko'zlangan maqsadga erishish, qiyinchiliklarga chidamli bo'lish, muammolarni bartaraf etishda samarali yo'llardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Uni zarur o'rnlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Izlanuvchan-kreativ yondashuv. Bunday yondashuvni tadqiqiy-ijodiy yondashuvning davomi deyish mumkin. Uning maqsadi talabalarda muammoni hal qilish, tugallanmagan tajribalarni mustaqil o'zlashtirib o'z nihoyasiga yetkazish, uning yangi yo'llarini yaratish qobiliyati va idrokini yuksaltirishda ko'zga tashlanadi. Izlanuvchi shakldagi ta'lim shaxsni tadqiqotchilikka yo'naltirish, yuksak ijodiy faoliyatni ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalarning o'quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo'l tutiladi hamda tadqiqotchilik jihatlari oldingi planga olib chiqiladi. Buning natijasida yangicha qarashlar, foydali g'oyalar, innovatsion ishlanmalar, ilg'or loyihamar vujudga keladi.

Tizimli yondashuv. Ko'pincha "tizimli tahlil usuli" yoki "tizimli metod" shaklida tilga olinadigan mazkur yondashuv pedagogik ta'lim ob'ektini yagona mexanizm sifatida o'rganish jarayonini o'zida ifodalaydi. Tizimli yondashuvda tahlil ob'ekti o'rganilayotgan ijtimoiy munosabat yoki voqe-a-hodisadir. Ob'ekt tahlil qilinganda, uning atribut va substantsiyalari orasidagi aloqadorlik, strukturaviy chegaralar va aloqadorlik xususiyatlari dialektik asosda tadqiq qilanadi. Tizimli tahlil usuli ko'proq falsafiy tadqiqot olib borish jarayoniga mos keladi.

Texnologik yondashuv. Bu yondashuvning o'ziga xos xususiyati ta'lim jarayonini loyihalashtirish orqali o'quv maqsadlariga erishishni nazarda tutadi. U loyihalashtirish metodini taqdim etadi. Ushbu metod o'qitish jarayonini tashkillashtirish, rejulashtirishni o'zida ifoda etadi. Ushbu metodni qo'llash asosida talabalar tomonidan loyiha ko'rinishidagi bilimlar olinadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlik pedagogikasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning birgalikda bilim olishlarini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish singari muhim metodlar mavjud. Ular malakali kadr tayyorlash jarayonidagi o'qitish uslublari va jamiyat ehtiyojlari o'rtasida vujudga keluvchi ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qilishi lozim. Texnologik yondashuv ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Ta'limni boshqarishga tizimli yondashuv. Ushbu yondashuv o'qituvchining talabalarga mavjud imkoniyatlarga asoslanib zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Bunday yondashuvga

asoslangan texnologiya o'rganilayotgan mavzu bo'yicha material tanlash, uni o'qitish uslubi va maqsadiga mos ketma-ketlikka keltirish, pedagogik usullar yordamida tahlil qilish, pedagogik texnologiyani qo'llash loyihasini belgilash, uni amalda qo'llash, natijalarini tahlil qilib, erishilganlik darajasini baholash hamda zaruriy xulosalar chiqarishni o'zida ifodalaydi.

Ta'limgagi turli yondashuvlar pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sanaladi. Har qanday yondashuvli innovatsion texnologiya ta'limgagi xilma-xillik vujudga kelishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashning ilmiy asoslarini tadqiq qilish zarurati ortib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Olimov Sh, Hasanova Z. Pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – b. 52.
2. Yigitalievich K. Z. Fundamentals of the development of professional competence of students of law pedagogics //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 10. – S. 154-160.
3. Yigitalievich, Khamrakulov Zafarjon. "Development of students' competence in the use of legal documents" Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 729-733.
4. Khamrakulov Z. Y. Philosophical and historical basis of the idea of prosperity //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 6. – S. 357-363.
5. Yigitalievich K. Z. Increasing Legal Culture Of Students By Improving The Teaching Of Criminal Law //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 12. – S. 38-42.
6. Khamrakulov Z. Problems of increasing legal information and legal literacy of youth //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 16. – S. 4-7.